



Tulanboy YUSUPOV,
Andijon davlat universiteti dotsenti
E-mail: Yusupovto'lanboy26@mail.ru

PhD B.Parmonov taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN TEAM RELATIONS (ON THE EXAMPLE OF FOOTBALL TEAMS)

Annotation

This article analyzes the psychological aspects of emotional intelligence in team relations, in particular, on the example of football teams. The study examines how the level of emotional intelligence of football players affects their team performance, communication skills and stress management skills. It also discusses the role of emotional intelligence in the development of emotional bonds between coaches and players, cooperation within the team and leadership qualities. The results of the study are aimed at providing practical recommendations for creating an effective psychological environment in football teams and increasing the motivation of athletes.

Key words: Emotional intelligence, team relations, football team, psychological aspects, communication, stress management, leadership, sports psychology.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КОМАНДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ (НА ПРИМЕРЕ ФУТБОЛЬНЫХ КОМАНД)

Аннотация

В статье анализируются психологические аспекты эмоционального интеллекта в командных отношениях, в частности, на примере футбольных команд. В исследовании изучалось, как уровень эмоционального интеллекта футболистов влияет на их командную игру, коммуникативные навыки и способность справляться со стрессом. В статье также обсуждается роль эмоционального интеллекта в развитии эмоциональных связей между тренерами и игроками, командной работе и лидерских качествах. Результаты исследования направлены на предоставление практических рекомендаций по созданию эффективной психологической среды в футбольных командах и повышению мотивации спортсменов.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, командные отношения, футбольная команда, психологические аспекты, коммуникация, управление стрессом, лидерство, спортивная психология.

JAMOAVIY MUNOSABATLARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING PSIXOLOGIK JIHATLARI (FUTBOL JAMOALARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamoaviy munosabatlarda emosional intellektning psixologik jihatlari, xususan, futbol jamoalarining misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda futbolchilarning emosional intellekt darajasi ularning jamoaviy o'yin samaradorligiga, kommunikativ ko'nikmalariga va stressni boshqarish qobiliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganilgan. Shuningdek, murabbiy va futbolchilar o'rtasidagi hissiy aloqalar, jamoa ichidagi hamkorlik va liderlik sifatlarining rivojlanishida emosional intellektning roli muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari futbol jamoalarida samarali psixologik muhitni shakllantirish va sportchilar motivatsiyasini oshirish uchun amaliy tavsiyalar berishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: Emosional intellekt, jamoaviy munosabatlar, futbol jamoasi, psixologik jihatlari, kommunikatsiya, stress boshqarish, liderlik, sport psixologiyasi.

Kirish. Jahon sportida futbolchilarning va ularning jamoasining turli psixologik vaziyatlarni yengish bo'yicha va xissiy-emotsional holatlarini, ularni salbiy oqibatlarini yengishda psixologik tayyorgarlik, turli stresslar, frustratsiyalar, nevroitik holatlar va tushkunliklarni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik masalalar bo'yicha ilmiy izlanishlar ma'lum darajada olib borilmoqda. Bu borada emotsional intellektning ta'sirlari, futbolchilarning ruhiy rivojlanishining eng muhim bosqich ekanligi, mazkur psixologik jarayon futbolchilarning jamoaviy shakllanishida, psixologik tayyorgarligida o'zgacha yondashuvni tanlash nuqtai nazaridan ahamiyati beqiyos ekanligi, futbolchilarning o'zini-o'zi anglashi, o'z o'zini faollashtirish, musobaqalarga refleksiv munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan masalalarga e'tibor qaratish muhimligi bois futbolchilarda emotsional intellektni jamoaviy munosabatlarga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillarini bilan bog'liqligini o'rganish zarurati kuzatilmogda.

Respublikamizda so'nggi yillarda sport sohalariga alohida e'tibor bilan yondashilmoqda. Bu borada prezidentimiz yurtimiz sportchilariga katta e'tibor qaratib, ularni yutuqlarini o'z nutqlarida etirof etib, 2021-yil 13-avgust kuni Tokioda bo'lib o'tgan XXII yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan O'zbekiston sport delegatsiyasi vakillari bilan uchrashuvda Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday dedi: "Hammamizga ayonki, xalqaro

olimpiya o'yinlarida yer yuzining eng zo'r, manaman degan sport ustalari ishtirok etadi. Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, sherga qarshi sherdek kurashish, jang qilish kerak. Sizlar dunyo tan olgan sportchilar bilan mardona olishib, ularning o'zini ham, ular erishgan natijalarni ham ortda qoldirib, 3 ta Olimpiya rekordini yangilab, jahon sportida ham yorqin sahifa ochdi ngiz." Deyla takidlab masullarga sport sohasini rivojlantirish va rag'batlantirish uchun alohida topshiriqlar beradi[1].

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda ham sportning futbol turi rivojlantirish borasida, uning jahon miqyosida ko'rsatishga astoydil mehnat qilinmoqda, bu borada o'zbek psixolog olimlarining o'rini beqiyos. O'zbek olimlarimizdan G'.B.Shoumarov, B.M.Karimova, B.R.Qodirov, N.S.Safayev, Z.Nishonova, Sh.R.Baratov, R.S.Samarov, Z.G. Gapparov va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida sportchilardagi turli xissiy-emotsional kechinmalarni o'rganish borasida muayyan darajada ishlar olib borishgan. G'.B.Shoumarov, B.M.Karimova, B.R.Qodirov, N.S.Safayev, Z.Nishonova va boshqalar yosh davriga xos intellektual va emotsional xususiyatlarning u yoki bu qirralarini muayyan darajada tadqiq etishda intellektning turli psixologik xususiyatlariga e'tibor qaratganlar. MDH davlatlari olimlaridan A.V.Alikseyev, V.F.Sopov, L.S.Vigotskiy, D.A.Leontev, A.V.Petrovskiy, A.M.Stolyarenko, M.SH.Magamed-Eminov, V.I.Medvedev va boshqa olimlar sport

psixologiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida emotsional intellektni jamoaga ta'sirlarini malum darajada yoritib o'tganlar. Y.M.Semyonova, I.N.Andreeva, D.V.Ushakova, E.A.Sergienko, I.S.Stepanov, D.V.Lyusin[2] tadqiqotlarida emotsional intellektning turli yosh davrlariga xos nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xorij olimlaridan Dj.Mayer, P.Salovey va D.Karuzolar emotsional intellekt tushunchasini fanga ilk bor ilmiy asosda kiritganlar. D.Goleman emotsional intellektni bosh miya yarim sharlari va mental soha bilan uzviy bog'liqligini tadqiq etgan. E.Boadzis, K.V.Petrides va boshqa olimlar emotsional intellektni turli qarashlar doirasida o'rganish bilan shug'ullanishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi kompleks 2.1-jadval

Tomas-Kilmanning ziddiyatli vaziyatlarda xulq-atvor ko'rinishlari anketasi tavsiflovchi statistika natijalari (N=443)

Ko'rsatkichlar	N	Minimal	Maksimal	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetriya	Eksess
Raqobat	443	1,00	13,00	7,1038	2,15320	-,298	-,001
Hamkorlik	443	2,00	11,00	6,1061	1,59752	-,074	-,288
Murasoz	443	,00	11,00	5,3070	1,65882	,185	,306
Qochuvchi	443	1,00	10,00	5,3386	1,90926	-,173	-,360
Moslashuvchan	443	1,00	11,00	6,0609	1,82327	-,109	-,312

Raqobat strategiyasining o'rtacha qiymati 7.10 bo'lib, bu ko'rsatkich o'rta darajadan biroz yuqori ekanligini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, respondentlarning ko'pchiligi o'z manfaatlarini himoya qilishga moyil, kuchli pozitsiyaga ega bo'lishga intiladi va qarama-qarshilik holatlarida murosasizroq harakat qiladi. Standart og'ish (SD=2.15) unchalik katta emas, ya'ni respondentlar o'rtasida bu strategiyadan foydalanish ko'proq o'xshashlik kasb etadi. Assimetriyaning (-0.298) manfiy qiymati shuni bildiradiki, respondentlarning raqobatga moyilligi biroz yuqoriroq bo'lgan tomoniga siljigan, ya'ni aksariyat ishtirokchilar bu strategiyadan o'rta darajada yoki ko'proq foydalanadi. Hamkorlik (M=6.10, SD=1.59) Hamkorlik strategiyasi bo'yicha o'rtacha qiymat 6.10 bo'lib, bu o'rta darajada ekanligini anglatadi. Respondentlarning aksariyati mojaro vaziyatlarida hamkorlik qilishga moyil bo'lsa ham, bu dominant strategiya emas. Assimetriyaning (-0.074) qiymati nolga yaqin, bu esa ma'lumotlar nisbatan simmetrik taqsimlanganini bildiradi. Eksess (-0.288) esa taqsimotning bir tekis tarqalganini ko'rsatadi, ya'ni hamkorlikdan foydalanish bo'yicha respondentlar o'rtasida katta tafovutlar kuzatilmagan. Bu natija shuni ko'rsatadiki, respondentlar jamoaviy muhitda ishlashga moyil, ammo ular uchun hamkorlik asosiy strategiya emas, balki muayyan holatlarda qo'llaniladi. Murosasozlik (M=5.30, SD=1.65) Murosasozlik (kompromiss) strategiyasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 5.30 bo'lib, bu mo'tadil darajada ekanligini bildiradi. Minimal qiymat 0.00, ya'ni ayrim respondentlar umuman bu strategiyani ishlatmasligi mumkin. Assimetriyaning musbat qiymati (0.185) shuni anglatadiki, respondentlarning aksariyati bu strategiyadan past yoki o'rta darajada foydalanadi, ammo yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan respondentlar ham bor. Eksess (0.306) esa ma'lumotlarning biroz tig'iz joylashganligini bildiradi. Bu natijalar shuni anglatadiki, respondentlarning bir qismi kelishuvga 2.2-jadval

Intellekt tiplari (G. Gardner tomonidan ishlab chiqilgan) anketasi tavsiflovchi statistika natijalari (N=443)

Ko'rsatkichlar	N	Minimal	Maksimal	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetriya	Eksess
Lingvistik	443	,00	4,00	2,2980	1,06217	-,173	-,588
Matematik mantiqiy	442	,00	12,00	2,0747	1,13543	1,534	2,007
Vizual_fazoviy	443	,00	4,00	2,4063	1,05383	-,241	-,604
Musiqiy	443	,00	4,00	1,7314	1,02352	,201	-,592
Shaxslararo	443	,00	12,00	2,9052	1,11957	,615	1,101
Shaxsning ichki olamiga yo'nalgan	443	,00	4,00	2,6637	1,08973	-,461	-,594
Kinestetik	443	,00	4,00	2,7111	1,03230	-,415	-,620

Lingvistik intellekt so'z boyligi, nutqni tushunish, ifodalash va til bilan ishlash qobiliyatini ifodalaydi. O'rtacha ko'rsatkich 2.30 bo'lib, bu respondentlarning lingvistik qobiliyatlari o'rta darajada ekanligini bildiradi. Assimetriya (-0.173) salbiy bo'lgani uchun respondentlarning natijalari o'rta

nazariy va empirik metodlar qo'llanildi. Ular: maqsadli kuzatuv, suhbat, qayd qiluvchi eksperiment, «Ziddiyatli vaziyatlarda xulq-atvor ko'rinishlari anketasi» (Tomas-Kilmanning metodi asosida), «Emotsional intellektni baholash» testi (N.Xoll metodi asosida), G.Tojiboyeva va T.Yusupovlar tomonidan tuzilgan «Emotsional intellekt» so'rovnoma, «Intellekt tiplari anketasi» metodikasi (G.Gartner metodi asosida), G. Y. Ayzenkning shaxs individualligini aniqlashga qaratilgan EPQ so'rovnoma, hamda matematik statistik metodlari («SPSS-14» dasturi talablari bo'yicha).

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonini tashkil etishda tanlangan metodikalar statistik jihatdan to'g'ri o'tkazilganligini tekshirish maqsadiga tavsiflovchi mezon orqali respondentlardagi javoblar tahlili quyidagi jadvalda keltirildi.

moyil bo'lsa ham, ularning aksariyati mojaroning boshqa usullari (masalan, raqobat yoki qochish) bilan harakat qilishni afzal biladi. Qochish (M=5.33, SD=1.91) o'rtacha qiymat 5.33 bo'lib, bu ham mo'tadil darajada ekanligini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, respondentlarning ayrim qismi mojaro lardan qochishga harakat qilsa ham, bu barcha uchun asosiy strategiya emas. Assimetriyaning musbat bo'lishi (0.173) respondentlarning aksariyati qochish strategiyasidan unchalik ko'p foydalanmasligini bildiradi. Eksess (-0.360) ma'lumotlarning nisbatan tekis tarqalganligini ko'rsatadi. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, ba'zi talabalar mojaro vaziyatlaridan qochishga moyil bo'lsa-da, umumiy holatda bu strategiya dominant emas. Moslashuvchanlik (M=6.06, SD=1.82) Moslashuvchanlik strategiyasi bo'yicha o'rtacha qiymat 6.06 bo'lib, bu ham mo'tadil darajada ekanligini bildiradi. Bu shuni ko'rsatadiki, respondentlar mojaro larga moslashish va o'z pozitsiyalarini yumshatishga moyildirlar. Assimetriyaning (-0.109) nolga yaqin bo'lishi shuni anglatadiki, respondentlarning moslashuvchanlik darajasi nisbatan teng taqsimlangan. Eksess (-0.312) esa moslashuvchanlik bo'yicha ko'rsatkichlarning bir tekis taqsimlanganini bildiradi. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning aksariyati turli vaziyatlarga moslashishga intiladi, lekin bu strategiya ham yuqori ustunlikka ega emas. Eng yuqori o'rtacha ko'rsatkichlar raqobat (7.10) va hamkorlik (6.10) strategiyalariga tegishli bo'lib, bu shuni anglatadiki, respondentlar mojaro larga faol yondashadi va o'z fikrlarini himoya qilishga moyil. Qochish (5.33) va murosasozlik (5.30) strategiyalari esa nisbatan past ko'rsatkichlarga ega, bu esa respondentlarning mojaroning bunday turlaridan kamroq foydalanishlarini bildiradi. Moslashuvchanlik (6.06) esa mo'tadil darajada bo'lib, respondentlarning aksariyati turli sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

qiymatdan biroz yuqoriroq tomon siljigan. Bu esa lingvistik jihatdan kuchliroq bo'lgan respondentlar nisbatan ko'proq ekanligini bildiradi. Eksess (-0.588) taqsimotning nisbatan tekis tarqalganligini ko'rsatadi. Matematik-mantiqiy intellekt mantiqiy tafakkur, analitik qobiliyat va sonlar bilan ishlash qobiliyatini

anglatadi. O'rtacha qiymat 2.07 bo'lib, bu qobiliyatning respondentlarda nisbatan pastroq ekanligini bildiradi. Assimetriyaning yuqori musbat qiymati (1.534) shuni anglatadiki, respondentlarning ko'pchiligi past ball olgan, lekin ayrimlari yuqori ballga ega. Eksessning yuqori bo'lishi (2.007) natijalarning tig'iz joylashganini, ya'ni aksariyat respondentlarning ko'rsatkichlari o'rtacha darajadan ancha past ekanligini ko'rsatadi. Vizual-fazoviy intellekt intellekt shakl va tasvirlarni tushunish, makon va fazodagi obyektlarni idrok etish qobiliyatini bildiradi. O'rtacha qiymat 2.41 bo'lib, bu qobiliyat o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi. Assimetriya (-0.241) shuni anglatadiki, respondentlarning natijalari nisbatan teng taqsimlangan, lekin salbiy qiymat biroz yuqoriroq natijalarga moyilligini bildiradi. Eksess (-0.604) esa natijalarning nisbatan bir tekis tarqalganligini ko'rsatadi. Musiqiy intellekt ritm, melodiya, tovushlarni idrok qilish va musiqiy eshitish qobiliyatini ifodalaydi. O'rtacha ko'rsatkich 1.73 bo'lib, respondentlarning aksariyatida bu qobiliyat pastroq ekanligini bildiradi. Assimetriya (0.201) natijalarning biroz past tomon siljiganligini bildiradi. Bu esa aksariyat respondentlarning musiqiy intellekti pastroq ekanligini ko'rsatadi. Shaxslararo intellekt boshqalar bilan muloqot qilish, insonlarning kayfiyati va his-tuyg'ularini tushunish qobiliyatini bildiradi. O'rtacha qiymat 2.90 bo'lib, bu respondentlarning ijtimoiy qobiliyatlari nisbatan yuqori ekanligini

3-jadval

N.Xollning emotsional intellektni baholash testi tavsiflovchi statistika natijalari (N=443)

Ko'rsatkichlar	N	Minimal	Maksimal	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetriya	Eksess
Emotsional bilimdonlik	443	-18,00	24,00	7,3296	5,68078	-7,753	1,514
O'z emotsiyalarini boshqarish	443	-13,00	18,00	6,8149	5,93838	-6,79	408
O'z o'zini rag'batlantiruvchi	443	-18,00	19,00	9,1625	5,30224	-9,71	2,325
Empatiya	443	-15,00	20,00	7,9165	5,83404	-8,34	1,219
O'zga insonlar kechinmalarini tushunuvchi	443	-18,00	18,00	7,9977	5,58460	-5,43	727

Emotsional bilimdonlik o'z his-tuyg'ularini anglash, ularni ifoda eta olish va boshqalarning emotsiyalarini tushunish qobiliyatini bildiradi. O'rtacha qiymat 7.33 bo'lib, respondentlarning aksariyatida bu qobiliyat o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi. Assimetriya (-0.753) salbiy bo'lgani uchun respondentlarning natijalari yuqoriroq qiymatlarga moyilligini bildiradi, ya'ni ko'pchilik emotsional bilimdonlik jihatdan yetarli darajaga ega. Eksess (1.514) yuqori bo'lib, natijalar taqsimoti tig'iz joylashgan. Bu shuni anglatadiki, respondentlarning aksariyati o'rtacha darajadan keskin farq qilmaydi. O'z emotsiyalarini boshqarish hissiyotlarni nazorat qilish, stress va tashqi ta'sirlarga moslashish qobiliyatini bildiradi. O'rtacha qiymat 6.81 respondentlarning aksariyati bu borada o'rtacha darajada ekanligini anglatadi. Assimetriya (-0.679) salbiy bo'lib, natijalar yuqoriroq tomon siljigan, ya'ni respondentlarning ko'pchiligi o'z his-tuyg'ularini nazorat qila oladi. Eksess (0.408) natijalar taqsimotining biroz o'rtaga jamlanganligini bildiradi. Ushbu natija respondentlarning stressga bardoshlilik va o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati yetarli ekanligini ko'rsatadi. O'z-o'zini rag'batlantirish shaxsning ichki motivatsiyasi, maqsadlarga erishish istagi va qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyatini bildiradi. O'rtacha qiymat 9.16 respondentlarning bu qobiliyati yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi. Assimetriya (-0.971) natijalarning yuqori tomon siljiganligini bildiradi, ya'ni aksariyat respondentlarda o'z-o'zini rag'batlantirish darajasi yuqori. Eksess (2.325) natijalar taqsimotining markazga juda tig'iz joylashganligini anglatadi, ya'ni ko'pchilik respondentlar bir xil natijaga ega. Bu natija shuni ko'rsatadiki, respondentlar ichki motivatsiyaga moyil, maqsadlarga erishish istagi kuchli va o'zlarini rag'batlantira oladilar. Empatiya boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga hammadlik ko'rsatish

bildiradi. Assimetriya (0.615) musbat bo'lgani uchun respondentlarning natijalari pastroq tomon siljigan. Biroq ayrim respondentlarning ko'rsatkichlari ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bu natija respondentlarning aksariyati boshqalar bilan yaxshi munosabat qura olishini, ammo ularning bir qismi bu borada qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadi. Shaxsning ichki olamiga yo'naltirilgan intellekt turi o'zini tushunish, o'z his-tuyg'ularini anglash va tahlil qilish qobiliyatini anglatadi. O'rtacha qiymat 2.66 bo'lib, bu qobiliyat respondentlar orasida nisbatan yuqori ekanligini bildiradi. Assimetriya (-0.461) salbiy bo'lgani uchun respondentlarning natijalari yuqoriroq tomon siljigan. Bu esa respondentlarning aksariyati o'z ichki dunyosini tushunishga moyilligini bildiradi. Kinestetik intellekt harakat va jismoniy qobiliyatni anglatadi. O'rtacha ko'rsatkich 2.71 bo'lib, respondentlarning aksariyati yaxshi jismoniy koordinatsiyaga ega ekanligini bildiradi. Assimetriya (-0.415) salbiy bo'lib, respondentlarning natijalari yuqoriroq tomon siljigan. Eng yuqori intellekt turlari: Shaxslararo (2.90), Kinestetik (2.71), Ichki olamiga yo'naltirilgan (2.66). Eng past intellekt turlari: Musiqiy (1.73), Matematik-mantiqiy (2.07). Bu natijalar respondentlarning ijtimoiy va jismoniy intellekti rivojlangan, lekin musiqiy va matematik-mantiqiy tafakkur nisbatan pastroq ekanligini ko'rsatadi.

qobiliyatini bildiradi. O'rtacha qiymat 7.92 bo'lib, respondentlarning empatiya darajasi o'rtacha va undan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Assimetriya (-0.834) shuni anglatadiki, respondentlarning ko'pchiligi empatik qobiliyatga moyil. Eksess (1.219) natijalar markazga nisbatan tig'iz joylashganligini bildiradi. Bu natijalar respondentlarning boshqalarning his-tuyg'ulariga sezgirliigi va ularni tushuna olish qobiliyatining yetarli ekanligini ko'rsatadi. O'zga insonlar kechinmalarini tushunish boshqalarning emotsional holatini tushunish, muloqot jarayonida ularning kayfiyatini his qilish qobiliyatini aks ettiradi. O'rtacha qiymat 7.99 bo'lib, respondentlarning aksariyati bu borada yetarli darajada rivojlanganligini bildiradi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot futbolchilarning emotsional intellekti va uning jamoaviy munosabatlarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotning metodologik asoslari, empirik tekshiruv natijalari va ularning tahlili keng o'rganildi. Tadqiqotni samarali tashkil etish uchun psixologik diagnostika, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, eksperimental tekshiruvlar va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Bunday yondashuv futbolchilarning emotsional intellekt darajasini aniqlash, ularning jamoaviy muhitdagi xulq-atvori va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq jihatlarini aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqot davomida futbolchilarning emotsional intellekti ularning jamoaviy munosabatlariga ta'sir qiluvchi muhim omil ekanini aniqlandi. Yuqori emotsional intellektga ega sportchilar jamoa ichida samarali muloqot olib borish, muammolarni konstruktiv hal qilish va stress holatlariga moslashish qobiliyatiga ega ekanligi kuzatildi. Bunday futbolchilarning jamoaviy birdamlik hissi yuqori bo'lib, ular yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etishlari, o'zaro ishonch va hamkorlik muhiti yaratishlari mumkinligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. https://xabar.uz/uz/sport/shavkat-mirziyoyev-sherga-qarshi-sherdek-kurashish-jang-qilish-utm_source.
2. Люсин, Д.В. Современные представления об эмоциональном интеллекте / Д.В. Люсин // Социальный интеллект: Теория, измерение, исследования; под ред. Д.В.Люсина, Д.В.Ушакова. – М.: Ин-т психологии РАН, 2004. – С. 29–3
3. Самаров Р.С. Девиантное поведение: характеристика форм и мотивов. – Ташкент.: ВШСАП. 2004. – 30 с.
4. Сакович Н.А. Арт-терапия бо'йича қўлланма. -СПб, 2005 - 42с.